



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING O'RNI**

Xolmurodova Yorqinoy Zokir Qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Anotatsiya: Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish va boyitishda o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining (ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tezaytish va dostonlar) pedagogik imkoniyatlari hamda o'rni yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish, fikrini mantiqiy va ravon bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalari qanday samarali vosita bo'lib xizmat qilishi tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonlarida folklor materiallaridan foydalanishning metodik tavsiyalari va uning yosh avlod ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, boshlang'ich sinf, xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, tezaytish, lug'at boyligi, mantiqiy tafakkur, metodika, ma'naviy tarbiya.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются педагогические возможности и роль образцов устного народного творчества (сказки, пословицы, загадки, скороговорки) в формировании и обогащении культуры речи учащихся начальных классов. Анализируется, как фольклорные материалы служат эффективным средством расширения словарного запаса младших школьников, развития навыков логичного и беглого выражения мыслей. Также представлены методические рекомендации по использованию устного народного творчества на уроках и обосновано его значение в духовном воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: культура речи, начальные классы, устное народное творчество, сказка, пословица, скороговорка, словарный запас, логическое мышление, методика, духовное воспитание.

Abstract: This thesis highlights the pedagogical potential and the role of folklore samples (fairy tales, proverbs, riddles, tongue twisters) in shaping and enriching the speech culture of primary school students. The paper analyzes how the heritage of folklore serves as an effective tool for expanding young learners' vocabulary and developing their skills of logical and fluent expression. Furthermore, methodological recommendations for implementing folklore materials in primary school lessons are provided, and their significance in the spiritual upbringing of the younger generation is substantiated.

Keywords: speech culture, primary school, folklore, fairy tale, proverb, tongue twister, vocabulary, logical thinking, methodology, spiritual education.

KIRISH:

Har birimiz hayotimiz davomida xalq og'zaki ijodi namunalaridan bahramand bo'lib ulg'ayamiz. Bolalikdan alla va ertaklar eshitib katta bo'lmagan odam yo'q desak mubolag'a





bo'lasligi tayin. Chunki har bir odam dunyoga kelgach turli darajadagi alla, ertak, rivoyat va afsonalar eshitadi va aynan o'shalar orali dunyoni taniydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fundamental asarida mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda milliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish va yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish strategik vazifa sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbarining nutqlari va mazkur kitobdagi g'oyalarda yoshlarning ona tilini mukammal bilishi, nutq madaniyatiga ega bo'lishi hamda milliy qadriyatlar va folklor merosimizga tayanishi davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo'nalish ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, asarda ilgari surilgan strategik yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy malakasini xalq og'zaki ijodi vositasida shakllantirishning konseptual-metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM:

Xalq og'zaki ijodi – ming yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan eng qadimiy san'at turi hisoblanadi. O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratilgan nodir merosi hisoblangan xalq og'zaki badiiy ijodi hamisha insonlar kamoloti, yurtimiz farovonligi hamda jamiyatimiz tinchligi borasida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Yillar to'zonidan omon-eson o'tib, aldodlarimizdan meros qolgan folklor janrlari ijtimoiy va siyosiy, ta'lim-tarbiya sohalarida ma'naviy hamda ma'rifiy yo'nalishlarda yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Xalqning yashash turmushi, tajribalari natijasida yuzaga kelib, o'z haqiqatini topgan maqollar, topishmoq, ertak, rivoyat va qo'shiqlar orqali bolalarni nutqini rivojlantirishda muhim vositadir. "Xalq og'zaki ijodi — ertak, maqol, topishmoq, rivoyat va qo'shiqlar orqali bolalarda nutqni rivojlantirishning muhim vositasidir. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda folklor namunalariidan foydalanish ularning lug'at boyligini oshiradi, muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradi hamda nutqning emotsional ifodaliligini kuchaytiradi. Bunday materiallar bolalarni dialog va monolog nutqqa o'rgatishda samarali bo'lib, ijtimoiy muhitga moslashishiga ham yordam beradi".

Xalq og'zaki ijodi namunalari orqali bolalarda quyidagi qobiliyatlar rivojlanadi:

Lug'at boyligi oshadi: topishmoqlar, maqollar, ertaklar, matallar va dostonlarda ko'pgina yangi so'zlar, tasviriy iboralar va o'xshatishlar mavjud. Ularni bolalar eshitishi orqali ko'plab yangidan yangi so'zlarni o'rganib, lug'at boyligi oshadi.

Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish: Xalq og'zaki ijodi namunalari tildagi gap qurilishini va so'z birikmalarining o'z o'rnida qo'llanilishini o'rgatadi. Bolalar ertaklardagi mantiqiy bog'liqligi tufayli gaplarning ketma-ketligini tushunadi.

Nutqning tiniqligi va ifodaliligini rivojlantirish: Tez aytishlar, she'rlar, matallar va qo'shiqlar bolaning talaffuzini yaxshilaydi va bu orqali nutq apparati yaxshi rivojlanadi. Ertaklarni hikoya qilish nutqning ifodaliligini, intonatsiya va emotsional bo'yqordorligini oshiradi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish: Ertak yoki hikoyani diqqat bilan tinglash bolaning eshitish xotirasini va diqqatini jamlash qobiliyatini oshiradi. Bu esa nutqni idrok etish va tushunish uchun muhimdir.





O‘z-o‘zini ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish: Bolalar ertak qahramonlariga taqlid qilib, ularning dialoglarini qaytarib, o‘z nutqini shakllantiradi. Rollarga kirishish orqali o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rganadi. “Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish bolalardagi nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda ham muhim ahamiyatga ega. Tez aytishlar, topishmoqlar va maqollar orqali tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, nutq apparatini rivojlantirish va fonetik xatolarni kamaytirish mumkin. Bu esa bolalarda to‘g‘ri, ravon va aniq nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.”

Tez aytishlar: Bolalarga tez aytishlarni o‘rgatish va ularni tez va to‘g‘ri takrorlashga mashq qildirish nutq apparatini rivojlantirib, talaffuzni yaxshilaydi. Tez aytishlar bo‘yicha kichik tanlovlar o‘tkazish bolalarda dars va mashg‘ulotlarga qiziqish uyg‘otadi. “Tez aytishlar bolalarda tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish (dislaliya) kabi fonetik kamchiliklarni bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi. Ular nutq apparatini mashq qildirib, artikulyatsion harakatlarni rivojlantiradi”[39]. Menimcha, tez aytishlar nafaqat talaffuzni to‘g‘rilaydi, balki bolalarda nutqqa qiziqishni ham o‘stiradi. Chunki ular o‘yin tarzida o‘rgatiladi va bola zerikmasdan mashq qiladi.

Tez aytish (namuna):

“Qizil qozonda qaynagan qatiq,
Qaynatgan qiz qattiq qotdi qatiq.
Qatiq qotdimi, qiz qotdimi,
Qotgan qatiqni kim tatidi?”

Maqollar va matallar: Maqollar bolaning nutqini yaxshilashda juda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular qisqa, mazmunli va obrazli bo‘lgani uchun bola tomonidan oson yod olinadi va nutqda qo‘llanadi. Har bir maqolda chuqur ma‘no mujassam bo‘lib, undagi yangi so‘z va iboralar bola nutqiga kirib boradi. Shu orqali u so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va o‘rinli ishlatishni o‘rganadi. Maqollarni aytganda ularning chuqur ma‘nosini bolalarning yoshiga mos tushuntirish va maqollarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab hikoya qilish orqali bolalarda lug‘at boyligi oshadi.

Shuningdek, maqollar bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. U maqol mazmunini tushunishga harakat qiladi, hayotiy vaziyatlarga moslab qo‘llaydi. Bu esa nutq bilan birga tafakkurning ham rivojlanishiga olib keladi.

“Yaxshilik qil, dengizga tashla, baliq bilmasa, Xudo bilar.”

“Mehnat qilgan — to‘yadi, dangasa — koyiydi.”

“El bilan maslahat — tog‘ni ko‘chirar.”

“Til — dil kaliti.”

“Do‘st boshdan, dushman oyoqdan bilinadi.”

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi namunalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini yuksaltirishda beqiyos va ta’sirchan manba bo‘lib xizmat qiladi. Ertaklar, maqollar, matallar va tezaytishlar bolaning so‘z boyligini oshirish bilan birga, mantiqiy fikrlashini o‘stiradi va nutqning ravon, aniq hamda ifodali bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu boy



ma'naviy meros vositasida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda o'z fikrini mustaqil va adabiy til me'yorlariga mos ravishda bayon etish ko'nikmalarini samarali shakllantiradi. Binobarin, boshlang'ich ta'lim jarayonida folklor namunalaridan tizimli va maqsadli foydalanish nafaqat yosh avlodning nutqiy mahoratini, balki ularning milliy qadriyatlarga hurmat ruhidagi ma'naviy dunyosini ham boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021.
2. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2018.
3. G'afforova T. va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-sinf darsligi. – Toshkent: Reja-Press, 2023.
4. Qosimova K., Matchonov S. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: “Nosir”, 2009.
5. Safarov SH. Pragmalingvistik nutq madaniyati. – Toshkent: “Fan”, 2008.
6. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so'z”, 2010.
7. Xudoyqulov X.J. Milliy pedagogika va qadriyatlar. – Toshkent: “Dizayn-Press”, 2011.
8. Yo'ldoshev Q. Nutq madaniyati va davr talabi // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Toshkent, 2022. - №4.
9. Zokirov M. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish metodikasi // Pedagogik mahorat jurnali. – Buxoro, 2024. - №2.
10. Rahmatullayev SH. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1998.